E-ISSN 2181-1466
9 772181 146004

ISSN 2181-6875
9 772181 687004

@buxdu_uz @buxdu1 @buxdu1 www.buxdu.uz

Научный вестник Бухарского государственного университета
Scientific reports of Bukhara State University
6/2025

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTI



6/2025

MUNDARIJA *** СОДЕРЖАНИЕ *** CONTENTS		
ADABIYOTSHUNOSLIK * LITERARY CRITICISM *** ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ**		
Narzulloyeva N.S.	Yusuf Xos Hojib asarida ramziy so‘zlar talqini: “qon” va “suyak” misolida	3
Norova M.F., Xusenova D.V.	Reflections of ugliness: a cross-cultural study of English and Uzbek proverbs	8
Khudoyorova N.B.	Enlightenment ideas in Oliver Goldsmith’s “The traveller” and their comparative analysis in Uzbek enlightenment literature	12
To‘rayeva B.B., Imomova M.H.	O‘zbek adabiyotida ota obrazining genezisi va tadrijiy evolyutsiyasi	16
Fuzaylova N.A.	O‘tkir Hoshimov asarlarida ichki kechinmalarning ifodalanish usullari (“Ikki eshik orasi” asari misolida)	23
Mamarasulov U.G‘.	Jonlantirish, takror va taqlid so‘zlarning bilvosita tarjimada berilishi (“Der Weg zurück” (E.M.Remark) romanining kirish qismi misolida)	28
Nuritdinova Sh.S.	Bolalar she’riyatida ramziy obraz va talqin	33
Носирова Д.Р.	Прагматическая эквивалентность в литературном переводе: теории, методологии, вызовы	39
Файзиева М.С.	Герой как зеркало общества в рассказах Дэвида Лоджа	45
G‘aniyeva N.G‘.	Abdurauf Fitrat asarlarida qarshilikning namoyon bo‘lishi	49
Sobirova G.A.	Nazariya va amaliyotda tarjima usullari: qiyosiy sharh	54
Sharipova N.Sh.	M.E. Saltikov-Shedrinning “Bir shahar tarixi” romanida satiraning o‘rni	59
Raximova S.T.	XVIII -XIX asrning birinchi yarmida ingliz adabiyotida ayol nasrining rivojlanish tendensiyalari	63
Qurbonova Sh.Sh.	Urushdan keyingi davrda ayollar va bolalar obrazining badiiy talqini	67
Ziyodulloyeva A.A.	“The black bull of Norroway” and the layers of darkness: unpacking the dual symbolism of black in Scottish folklore	71
Amonova D.A.	Tragik obraz tushunchasi – Aristotel talqini	75
Norqo‘chqorov Sh.Sh.	Sayid Muzaffaralining “Shajarat-ul-aruz”idagi qofiya harflarining xususiyatlari	79
JURNALISTIKA * JOURNALISM*** ЖУРНАЛИСТИКА**		
Mamatqulov X.B.	Sport jurnalistikasi – sport olamining ko‘zgusi	83
Boboxonova F.M.	Bolalarga bag‘ishlangan media kontentlar tahlili	89
Nu’monova N.A.	Media bilan ishlash: diniy tahdidlarning xususiyatlari	93

UO‘K 82

JONLANTIRISH, TAKROR VA TAQLID SO‘ZLARNING BILVOSITA TARJIMADA BERILISHI (“Der Weg zurück” (E.M.Remark) romanining kirish qismi misolida)

Mamarasulov Umid G‘ulomjonovich,
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universiteti,
Nemis filologiyasi kafedrasi mustaqil izlanuvchisi
mamarasulov_u@nuu.uz

Annotatsiya. *Ushbu maqolada nemis yozuvchisi Erix Mariya Remarkning “Der Weg zurück” (“Ortga yo‘l”) romanidan olingan parchalar asosida badiiy asarlardagi jonlantirish, takror va taqlid so‘zlarni boshqa tillarga bilvosita tarjima qilishda yuzaga keladigan o‘ziga xos muammolar tahlil etiladi. Tadqiqotda asarning nemis, rus va o‘zbek tillaridagi matnlari qiyosiy usulda ko‘rib chiqilib, tarjima jarayonida stilistik vositalarni samarali uzatish yo‘llari ko‘rsatib berilgan. Natijada original matnning stilistik va badiiy ta’sirchanligini saqlab qolishda qo‘llaniladigan usullar hamda ularning imkoniyat va chegaralari ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *jonlantirish, takror, taqlid so‘zlar, badiiy tarjima, bilvosita tarjima, stilistik figuralar, qiyosiy tahlil, Erix Mariya Remark, «Ortga yo‘l»*

КОСВЕННЫЙ ПЕРЕВОД ГЛАГОЛОВ, ПОВТОРЕНИЕ И ИМИТАЦИЯ (на примере вступления к роману «Der Weg zurück» (Э.М. Ремарк))

Аннотация. *В статье рассматриваются специфические проблемы передачи олицетворения, повторов и звукоподражательных слов при косвенном переводе на русский и узбекский языки на примере фрагментов романа Эриха Марии Ремарка «Der Weg zurück» («На обратном пути»). Проведён сравнительный анализ текстов оригинала и переводов на русском и узбекском языках, продемонстрированы способы эффективного сохранения стилистических и художественных особенностей исходного текста. Результаты анализа раскрывают возможности и ограничения используемых методов, обеспечивающих адекватность и выразительность художественного перевода.*

Ключевые слова: *олицетворение, повтор, звукоподражание, художественный перевод, косвенный перевод, стилистические фигуры, сравнительный анализ, Эрих Мария Ремарк, «На обратном пути».*

INDIRECT TRANSLATION OF VERBS, REPETITION AND IMITATION (on the example of the introduction to the novel «Der Weg zurück» (E.M. Remarque))

Abstract. *This article explores specific challenges in the indirect translation of personification, repetition, and onomatopoeia, using examples from Erich Maria Remarque’s novel «Der Weg zurück» («The Way Back»). Through a comparative analysis of the original in German and its translations into Russian and Uzbek, the study identifies effective strategies for preserving the stylistic and artistic features of the source material. The findings underscore both the potential and limitations of translation techniques aimed at achieving equivalence and expressiveness in literary translation.*

Keywords: *personification, repetition, onomatopoeia, literary translation, indirect translation, stylistic figures, comparative analysis, Erich Maria Remarque, "The Way Back"*

Kirish. Tarjima jarayonida tarjimonning diqqat markazida bo‘lishi kerak bo‘lgan masalalardan biri funksionallik hisoblanadi. Tarjima jarayonida funksionallik haqida so‘z borar ekan, bunda tarjima qilinayotgan asl matnning tarjima tilidagi shakli qanday vazifa bajarishi kerakligiga e’tibor qaratiladi. Bu jarayonda tarjima matnini o‘quvchilar uni qanday tushunishi va undan qay maqsadda foydalanishi nazarda tutilgan holda tarjima amalga oshiriladi. Bundan tashqari, madaniy o‘ziga xoslik ham e’tibor qaratilishi kerak bo‘lgan masalalar sirasiga kiradi. Xususan, madaniyatlar o‘rtasidagi farqlar til elementlariga ham, kontekstual elementlarga ham tegishli hisoblanadi. Asl matn yaratilgan til egalarining madaniyatigagina xos bo‘lgan tushunchalar, so‘z birikmalari, kinoya va so‘z o‘yinlari tarjima qilinayotgan tilda tushunarli ifodalanishini ta’minlash tarjimonning ustuvor vazifalaridan hisoblanadi. Tarjima jarayonida asl matnga sodiqlik va ifodalilikning o‘zaro mutanosibligi ham ta’minlanishi darkor. Asl matnga moslik va ifodalilik

odatda bir-biriga qarama-qarshi tushunchalar bo‘lib, tarjima jarayonida tarjimon bu ikkisining o‘rtasini topa bilsagina, amalga oshirilgan mehnat mahsuli samarali bo‘lib, o‘quvchilarga maqbul bo‘lishi muqarrar. Matnda ifodalilik tarjima matnini o‘quvchi uchun yoqimli o‘qilishini shu qadar ta’minlaydiki, natijada unda matn tarjima tilida yaratilganday taassurot qoldiradi.

Metodologiya. Tadqiqot materiali sifatida “Der Weg zurück” romanining birinchi bobidan parchalar, asarning kirish qismi olingan. Ushbu parchalar muallif tomonidan nemis tilida yozilgan[11] bo‘lib, ular asosida amalga oshirilgan qiyosiy tahlil uchun ikki tarjima matni tanlandi. Biri asarning rasmiy ruscha tarjimasi[12] (“На обратном пути”), ikkinchisi o‘zbekcha tarjima[13] (“Ortga yo‘l”).

Tahlil usuli matnshunoslik va tarjimashunoslikning tasviriy hamda qiyosiy usullari uyg‘unligidadir. Avvalo, nemischa matndan stilistik figuralar aniqlab olindi va har biri morfologik jihatdan qisqacha tahlil qilindi. So‘ng ushbu figurativ ifodalarning rus va o‘zbek tillaridagi tarjimalari solishtirildi. Qaysi birlari so‘zma-so‘z tarjima qilingan, qaysi hollarda tarjimon adaptiv ekvivalent topgan yoki kompensatsiya usulidan foydalangan, qayerda qisqartirish yoki neytrallashtirish sodir bo‘lgan, shu kabi jihatlar kuzatildi. Tarjima davomida stilistik effekt saqlanganmi, o‘zgarganmi yoki susayganmi, natijalar bo‘limida har bir stilistik figura misolida shu savollarga javob izlandi. Ish yakunida olingan kuzatuvlar xulosa qilinib, tarjima nazariyasining tegishli tamoyillari bilan bog‘landi.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Remark asar uslubida jonli va jonsiz narsalarning jonlantirib tasvirlanishi kuzatiladi. Masalan, muallif tungi manzarani tasvirlar ekan, atrofdagi tovushlar va jismlarga jon ato etadi. Granatalar *“hiqillaydi”*, shamol *“uvillaydi”*, hatto, oy ham tuman orasida *“suzadi”*. Bunday personifikativ tasvirlar original matnda atmosfera yaratish uchun xizmat qiladi. Tarjimonlar bu o‘rinlarda, odatda, muqobil ifoda topishda qiynalmaganlar, chunki ko‘plab tillarda jonsiz narsalarga fe’l qo‘shib, jonlantirib ko‘rsatish mumkin. Misol tariqasida, matndagi *“das hohe Zwitschern der Granaten”*[11;7] degan birikmani olaylik. So‘zma-so‘z ma’nosi *“granatalarning jarangdor chirqillashi”* bo‘lib, granata uchib ketayotib chiqargan uvullagan tovushini qushlar sayrashiga o‘xshatgan. Bu yerdagi *“Zwitschern”* fe’li aslida qushlarga xos *chirr-chirr* ovozni bildiradi, granatalarga nisbat berib personifikatsiya qilingan. Rus tarjimoni bunga ekvivalent sifatida *“писк”* so‘zini qo‘llagan. Rus tilida *писк* so‘zi ham jonli-jonsizlarga nisbatan ishlatilaveradi, lekin aniq personifikatsiya bo‘lmasa-da, granata ovozini ifodalash uchun mos. O‘zbekcha tarjimon esa *“chiyillash”* so‘zini tanlagan [13;7]. *Chiyillamoq* ham odatda qush yoki kichik jonzotlarning ingichka ovozi uchun aytiladi, granata parvoziga nisbatan ishlatib, tarjimon asl personifikatsiyani to‘laqonli bera olgan. *Granatalar go‘yo chirillab uchmoqda*, bu o‘quvchiga eshitilayotgan ovozni jonlantirib tasavvur qilish imkonini beradi. Umuman, tahlil shuni ko‘rsatadiki, personifikatsiyalarni tarjima qilish, agar ma’no jihatdan mos fe’l topilsa, ko‘pincha unchalik qiyinchilik tug‘dirmaydi. Asosiy e’tibor shunda bo‘ladiki, ba’zan originalda kulgili yoki noodatiy eshitiladigan jonlantirishlar boshqa tilga bevosita ko‘chirilsa, kutilmagan effekt berishi mumkin.

Remark uslubida takroriy konstruksiyalar ham uchraydi. Aniqrog‘i, matnda klassik anafora kam, lekin bir xil tuzilmani ketma-ket takrorlash, yoki bir fikrni bir necha marta turli shaklda takrorlab kuchaytirish usuli kuzatiladi. Masalan, *“Jeder hat hier so irgend etwas, der eine seine Frau, der andere sein Geschäft, der dritte seine Stiefel...”[11;8]* degan jumla bor. Ma’nosi *“Bu yerda har kimning o‘z narsasi bor. Birovda xotin, boshqasida do‘kon, uchinchisida etik...”*. Ushbu paralel tuzilma rus tarjimasida *“у каждого здесь есть что-нибудь: у одного – жена, у другого – торговля, у третьего – сапоги...”[12;4]* tarzida aynan saqlangan. O‘zbekcha tarjimasida ham *“bu yerda har bir kishining shunga o‘xshash ilinji bor. Kimdadir – xotin, boshqasida – oldi-sotdi, uchinchisida – etiklar...”[13;8]* deb juda muvofiq berilgan. Ko‘rinib turibdiki, anaforik takror har ikkala tarjimada ham to‘liq aks ettirilgan. Bu esa originaldagi ritmik ohangni saqlashga xizmat qilgan. O‘quvchi xuddi nemischa matndagi kabi bu gapdagi takror qurilma orqali muallifning kinoyali ohangini his qila oladi.

Yana bir takroriy usul – gradatsiya kirish qismida urush to‘satdan to‘xtab qolgandagi sukunat tasvirida qo‘llangan. Asl matndan iqtibos *“nichts, gar nichts mehr, kein Schuß, kein Schrei. Es ist einfach still, vollkommen still.”* [11;16] Ma’nosi *“hech narsa... umuman hech narsa yo‘q, na o‘q ovozi, na qichqiriq. Shunchaki sukunat. Mutlaq”*. Bu jumlada muallif avval *“hech narsa yo‘q”* deya bir necha negatsiya bilan takrorlab aytadi, so‘ng **“***Stille***.”** (Sukunat) so‘zi bilan yakunlab, hatto uni keyingi jumlada **“** *Vollständig***.”** (Mutlaq sukunat) deya mustaqil so‘z sifatida takrorlaydi. Bu usul jang jarangi birdan kesilgandagi quloqni tirmaydigan sokinlik effektini o‘quvchiga kuchli yetkazadi. Ruscha tarjima buni deyarli aynan aks ettirgan: *“Ни взрывов, ни свиста гранат – вообще ничего, ни выстрела, ни крика. Просто тишина. Полная.”[12;12]*. E’tibor bersak, rus tilida ham “тишина. Полная.” (Sukunat. To‘liq.) deb yakunlangan, ya’ni “*Vollständig*” so‘zi alohida *“Полная.”* sifatida qo‘yilgan. O‘zbekcha tarjimada ham shu yechim ko‘rinadi. Katta ehtimol bilan *“Mutlaq sukunat”* tarzida berilgan. Aslida bizning qo‘limizdagi matnda *“xuddi sukunat bo‘lmagandek...”* degan parcha bor, biroq yuqoridagi jumlaning aynan tarjimasini unda

koʻrmaymiz. Shunga qaramay, izchil mantiq bilan, oʻzbekcha nashr ham *"Sukunat. Mutlaq."* yoxud *"Mutlaq sukunat"* shaklini qoʻllasa maqsadga muvofiq boʻlardi. Natijada, bu manzaraning kulminatsion ohangi toʻsatdan boshlangan sukut oʻz taʼsirini tarjimada ham yoʻqotmagan. Umuman, tarjimalar davomida muallif qoʻllagan takror va ellipsislarga eʼtibor qaratilgan. Masalan, original matnda dialoglarda baʼzan gaplar tushib qoladi yoki nimadir aytilmay qoladi. Bular dramatik taʼsir beradi. Rus va oʻzbek tarjimonlari ham shunday joylarda aslga sodiq qolishga urinishgan, ortiqcha soʻz qoʻshmasdan, boʻshliq va pauzalarni saqlashgan. Masalan, yuqoridagi *"stille. Vollständig."* singari qisqa gaplar tarjimada ham alohida gap qilib berilgan. Shuningdek, askarlar hayratlanib *"Frieden?... Frieden?"* "Tinchlik?... Urush tugadi?" deya bir necha bor qaytarishadi. Bu takroriy savollar har ikki tarjimada alohida soʻroq gaplar sifatida ifodalangan. Bu degani, tarjimonlar takrorning stilistik funksiyasini yaxshi anglab, uni matn ravonligi va taʼsirchanligini saqlash uchun iloji boricha toʻliq yetkazishgan.

Metodologiya. Roman kirishida eng koʻzga tashlanadigan unsurlardan biri tovush tasvirlari, onomatopoezik soʻzlardir. Urush manzarasini real his ettirish maqsadida Remark turli tovushlarni matnda taqlidiy soʻzlar orqali bergan. granatalar uvillaydi, qanotlar "tapir-tupur" qiladi, pulemyotlar "taral-taral" ovoz chiqaradi, askar charchab uhlaganda xirillaydi va hokazo. Bu *lautmalerisch,* taqlidga asoslangan, uslub asarda atmosfera yaratishda muhim boʻlib, tarjimada uni adekvat yetkazish alohida usul hisoblanadi, chunki har bir tilning tovush taqlidi oʻziga xos. Qiziqarli jihati ruscha va oʻzbekcha tarjimalar bu masalada bir-biridan farqli yondashgan.

Misol tariqasida, yuqorida qayd etganimiz pulemyot tovushini olaylik. Asliyatda muallif *"das Knarren von Maschinengewehren"[11;7]* deya ifoda qoʻllaydi. *Knarren* – nemis tilida oʻzi bir onomatopoezik soʻz boʻlib, "qarsillamoq, gʻichirlab ovoz chiqarmoq" degani. Pulemyotga nisbatan ishlatib, muallif uning tarillagan ovozini eslatmoqda. Ruscha tarjimada esa bu joyda onomatopoeziya qisqartirilgan. *"пулеметные очереди"[12;3]* deb texnik-taʼrifiy ibora bilan almashtirilgan. Rus tilida *Knarr* degan soʻz yoʻq, "тарагата" kabi tovushlarni bevosita badiiy matnda yozish odat tusiga kirmagan. Shu bois tarjimon ruscha oʻquvchiga tanishroq, neytral ifodani tanlagan. *"pulemyot navbatma-navbat oʻq uzmoqda"* degan maʼnoni bildirgan. Oʻzbekcha tarjimada esa aksincha, tarjimon tovushga taqlidni toʻliq saqlagan, *"oʻqsocharning tarillashi"[13;7]* deb yozadi. Bu yerda *tarillash* soʻzi oʻzbek tilida onomatopoezik boʻlib, "taral-taral ovoz chiqarmoq" maʼnosini beradi, xuddi "tarillatmoq" feʼliga oʻxshash. Yaʼni, oʻzbekcha matnda pulemyotning jarangdor ovozi eshitiladi – "tar tar tar" qilayotgandek tasavvur paydo boʻladi. Bu farq shuni koʻrsatadiki, ruscha tarjimon bu holatda aniqlik va rasmiy uslubni maʼqul koʻrgan boʻlsa, oʻzbekcha tarjimon matnga koʻproq obrazlilik berishga intilgan. Har ikkala yondashuvning oʻz afzalliklari bor: ruscha variant *aniq va tushunarli* (har bir oʻquvchi "pulemyotning navbati" deganda nimani anglashi muqarrar), oʻzbekcha variant esa *eshitiladigan manzarani jonliroq* tasvirlaydi.

Boshqa onomatopoezik misollar ham shu tendensiyani tasdiqlaydi. Masalan, yovvoyi gʻozlarning tovushi. Aslida Remark gʻozlar uchib oʻtganda ularning sasini *" quarrende, fremde Rufe "[11;11]* deb tasvirlaydi – *quarren* soʻzi gʻozlarning boʻgʻiq "gʻagʻagʻa" ovozini eslatadi. Ruscha tarjimada bunga juda mos "клекот" soʻzi tanlangan – *клекот[12;9]* ham gʻoz va turnalarning qagʻillashini ifodalovchi onomatopoezik soʻz, rus oʻquvchisiga tanish. Oʻzbekcha tarjimada esa gʻozlarning sasini *"ga'gillagancha"* deb ifodalaydi, bu ham albatta "gʻa-gʻa" degan tovushdan olingan, gʻozlar gʻagʻillashi uchun juda mos soʻz. Demak, bu joyda har ikki tarjimon originalning tasvirini toʻlaqonli ekvivalent bilan bera olgan. Soʻng, Kozole toʻsatdan miltiq otganda, matnda *"Ein Schuss knallt."* deyiladi – *knallt* ham "qarsilladi, tarang ovoz chiqardi" degan onomatopoezik feʼl. Ruscha variant: *"Раздается выстрел."* (Otishma yangradi) deb baralla yangradi maʼnosida neytral aytilgan, hech qanday "taraq" degan ovoz kiritilmagan. Oʻzbekchasida esa *"Oʻqlama shiqillaydi."* deb tarjima qilingan. *Shiqillamoq* oʻzbek tilida nisbatan onomatopoezik – qattiq sado uchun ishlatiladi. Bu holda ham ruscha matn voqeani aniq taʼriflash bilan cheklandi, oʻzbekcha matn esa tovushni ham eshittiradi.

Keltirilgan tahlillar asosida xulosa qilish mumkinki, oʻzbekcha tarjima tovush effektlarini berishda jurʼatliroq yoʻl tutgan – askarlar nutqida va tasvirlarda tovushga taqlidli soʻzlarni koʻproq qoʻllagan. Ruscha tarjima esa baʼzi joylarda bunday taqlidiy soʻzlardan qochib, sodda tasviriy yoʻlni tanlagan (masalan, granata "uvillashi"ni "uvillagan ovoz" deb tasvirlash, pulemyot tarillashini "navbatli oʻq" deb tushuntirish kabi). Buning sababi sifatida, ehtimol, rus adabiy uslubida bunday haddan ziyod onomatopoezik tovushlarni jiddiy nasrda kamroq qoʻllash odati boʻlishi mumkin – koʻp hollarda ortiqcha taqlidiy soʻzlar matnga komik ohangi berib qoʻyishi ehtimoli yuqori deb qaraladi. Oʻzbek adabiyoti esa, ayniqsa, jangovar sahnalarni tasvirlashda, bunday taʼsirli tovush soʻzlardan foydalanishga yot nazar bilan qaramaydi, balki matnni boyituvchi vosita deb biladi – tarjimada shu narsa yaqqol namoyon boʻlgan.

Tahlil va natijalar. Yuqoridagi natijalar stilistik figuralar tarjimasi boʻyicha bir qator qiziqarli xulosalarni koʻrsatadi. Personifikatsiya tarjimasida koʻrilganidek, aksar jonlantirilgan tasvirlar rus va oʻzbek

tillarida imkon qadar saqlangan. Ba’zi personifikativ iboralar uchala tilga xos bo‘lsa, masalan, “oy suzdi”, “shamol uvilladi”, albatta o‘sha bilan berilgan. Muhimi, uslubiy detal sifatida personifikatsiyalar e’tibordan chetda qolmagan. Takror va ellipsisga nisbatan, tarjimalarda matnning ritmi va intonatsion qurilmasi asliyatga yaqin saqlanganini ko‘ramiz. Remark keltirgan parallel qurilmalar, Der eine … der andere… ham, ketma-ket sanab intensifikatsiya qilish, na ovoz, na qichqiriq... mutlaq sukunat, ham rus va o‘zbek tillarida o‘xshash tarzda takrorlangan. Shuningdek, dialoglarda muallif qo‘llagan ba’zi tushib qolgan gaplar tarjimada ham tushirilgan holda qolgan. Natijada, originaldagi intonatsiya va pauzalar tarjimada ham o‘quvchi uchun seziladi. Taqdim qilingan – bu matnning hissiy quvvatini oshiradi. Bu jihatdan har ikki tarjimon original sintaktik uslubiga sodiq qolishga intilgan deyish mumkin.

Muhokama. Onomatopoeziya – tovushga taqlid masalasida esa qiziqarli bir holat kuzatildi. Ruscha va o‘zbekcha yondashuvlarning farqlanishi. Yuqorida ko‘rganimizdek, ruscha tarjimon ba’zi joylarda onomatopoezik so‘zlardan qochgan, texnik tavsif bilan almashtirgan (pulemyot tarillashi – “navbatli o‘q otish” va hokazo). Aksincha, o‘zbekcha tarjimada tovushni eshittirishga katta e’tibor qaratilgan (“tarillash”, “xirr-pish” va hokazo so‘zlar qo‘shilgan). Bu farq ikki til madaniyati va adabiy uslubidagi tafovutdan kelib chiqqan bo‘lishi ham mumkin Chunki rus nasr an’anasida bunday ovoz ifodalarini ko‘p ishlatish jiddiylikdan chekinish deb qaralishi mumkin, o‘zbek badiiy nasrida esa bunday vositalar odatiy hisoblanib, kutilgan estetik ta’sirni oshiradi. Tarjima nazariyasi nuqtai nazaridan olib qaraganda, yuqoridagi holatlar bir necha muhim prinsiplarga e’tibor qaratadi. Birinchidan, badiiy tarjimada stilistik vositalar aslo ikkinchi darajali deb qaralmasligi lozim, chunki ular asarning mazmun-mohiyatining ajralmas qismidir. Ma’lumki, jahonda mashhur tarjimashunos Mona Bekker stilistik jihatdan qiyin o‘tadigan joylarda tarjimonlar ko‘pincha bir joydagi yo‘qotishni boshqa bir joyda kompensatsiya qilishlari zarurligini aytadi. Umumiy estetik ta’sirni saqlab qolish uchun shu shart. Yuqorida ko‘rilgan misollarda ham aynan shunday ekanini ko‘ramiz: masalan, nemischa matndagi “Kohldampf” iborasi tarjimada yo‘qoldi, lekin o‘sha epizodning o‘zida “qorning g‘uldurashi” degan oddiyroq ibora bilan tasvir berildi va darhol ortidan Yuppga nisbatan qo‘llangan hajviy atamalar (ruschasida “канселярская крыса”, o‘zbekchasida “qog‘ozboz”) bilan nutq ohangi balanslandi. Xuddi shunday, o‘zbekcha tarjimon ba’zi joylarda kuchliroq laqab va taqlidiy tovushlarni kiritib, balki boshqa bir joyda yumshatilgan effektni qopladi; ruscha tarjimon esa aksincha, matnni silliq va bosiq uslubda ushlab turish uchun ba’zi bezaklarni olib tashlab, muhim joylarda originalning ohangdorligini qoldirdi. Bu tarjimonlarning ijodiy yondashuvi natijasida asar o‘quvchisiga deyarli asl asardagi kabi ta’sir ko‘rsatishining garovidir.

Xulosa. Erix Maria Remarkning “Der Weg zurück” romanidagi boy stilistik figuralar uch til – nemis, rus va o‘zbek – tillari orasida qiyosiy tahlil qilinar ekan, quyidagi xulosalarga kelindi:

Jonlantirish usuli tarjimalarda imkon qadar asliga sodiq qoldirilgan. Muayyan personifikatsiyalar mazmunan ma’qul bo‘lganida, tarjimonlar ularni aynan o‘girgan. Faqat ba’zi nooddiy personifikatsiyalar oddiyroq ifoda bilan almashtirilgan. Umuman, tarjimalarda originalning badiiy tasvir uslubiga hurmat saqlanib, personifikatsiyalarning stilistik vazifasi mukammal ado etilishiga erishilgan.

Takror va ellipsis original matndagi nutq ohangi va ritmini belgilovchi omillar sifatida tarjimonlar diqqat markazida bo‘lgan. Takrorlar, parallel qurilmalar va kulminatsion takrorlar tarjimada ham aks ettirilgan. Ellipsislar, tushib qolgan so‘z va gaplar, asosan saqlanib, keraksizlari kiritilmagan. Bu esa tarjima matnining uslubiy mutanosibligi yuqori ekanini ko‘rsatadi va originalning ritorik-ta’sirchan tomonini o‘quvchiga yetkazadi.

Onomatopoezik vositalarni qo‘llashda ruscha va o‘zbekcha tarjimalar biroz farqlanuvchi strategiya tanlashgan bo‘lsa-da, har ikkisi yakunda originalning akustik manzarasini yetarli darajada qamrab olgan. Ruscha tarjimada ba’zi tovush taqlidlari neytralroq tasvir bilan almashtirilib, matn ravonligi va jiddiy ohangiga urg‘u berilgan. O‘zbekcha tarjimada esa, aksincha, ta’sirli ovoz tasviriga e’tibor kuchli. *“tarillash”, “chiyillash”, “xirr-pish”* kabi taqlid so‘zlar faol ishlatilgan. Ikkala yondashuv ham o‘z o’rnida samarali. Ruscha variantda aniqlik va ravonlik bilan ustun tursa, o‘zbekcha variantda o‘quvchini qo‘shimcha sezish hislari bilan ta’minlaydi. Muhimi, originaldagi asosiy tovush obrazlari hech qaysi tarjimada e’tibordan chetda qolmagan.

Yuqoridagilarga qo‘shimcha tarzda shuni ta’kidlash mumkinki, tarjima jarayonida e’tibor berilishi kerak bo‘lgan muammolar izchil tadqiq etish va misollar yordamida batafsil yoritilishi dolzarb bo‘lgan masalalar tarkibiga kiradi. Shuni e’tiborga olib, mazkur sohada zamonaviy manbalardan foydalanilgan holda qator izlanishlar olib borilishi maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

ADABIYOTLAR:

1. *Salomov G‘. Tarjima nazariyasiga kirish. Toshkent. O‘qituvchi 1978, 220 b.*
2. *O‘zbek tilining izohli lug‘ati: -T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006 -680 b.*
3. *Dieter Gyots. Taschenwörterbuch Deutsch als Fremdsprache. Langenscheidt KG Berlin und München,, 2007. – 635 S.*
4. *Hojiahmedov A. She’riy san’atlar va mumtoz qofiya. – T.: Sharq, 1998. – 160 b.*
5. *Ilka Peshek. Das Wörterbuch der Synonyme. Berlin, Dudenverlag 2016. – 352 S.*
6. *M. G. Sushko-Bezdenejnix. Стилистика немеского языка. Sumi: Sum DPU,2011. – 120 c.*
7. *Naer, Nina Mixaylovna. Stilistik der deutschen Sprache: Uchebnoe posobie / N. M. Naer. – Moskva: MPGU, 2015. – 256 c.*
8. *O‘zbek tilining izohli lug‘ati: -T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – 680 b.*
9. *Pan G. V. Deutsche Stilistik T.: 2010. – 280 S.*
10. *Quronov D. Adabiyotshunoslik lug‘ati / D.Quronov, Z.Mamajonov, M.Sheralieva. – Toshkent: Akademnashr, 2013. – 408 b.*
11. *Remark E. M. Der Weg zurück. Berlin. Im Propyläen-Verlag 1931. – 289 S.*
12. *Remark E. M. На обратном пути [перевод с немеского Е. Шукшиной]. – Москва : Издателство АСТ, 2021. – 352 с.*
13. *Remark E. M. Ortga yo‘l. Saidjalol Saidmurodov tarjimasi T.: Faktor books, 2022. – 320 b.*
14. *Nazarov Q.N., Xolmatova I.M. Tarjima nazariyasi va amaliyoti.(ma’ruzalar matni) Andijon. “Malxam-M” KTIChSK 2005– 44b*

Maqolaning nashr etilishi bo‘yicha qo‘shimcha ma’lumot

Mazkur ilmiy jurnal **O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) Rayosatining tegishli qarorlari bilan tasdiqlangan** nashrlar qatoriga kiritilgan.

Jurnal Oliy attestatsiya komissiyasining **dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar RO‘YXATI** tarkibida mavjud bo‘lib, ushbu Ro‘yxatning **82–89-sahifalarida**
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI ixtisosligi rukni ostida qayd etilgan.

Izoh: Ushbu ma’lumot Jurnalning O‘zR OAK tomonidan rasman tan olinganligini tasdiqlaydi.